

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

2026-YIL
IYUN/6-SON, II-QISM



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 - Texnika fanlari

08.00.00 - Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB™
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic Resource Index
ResearchBib

ISSN INTERNATIONAL STANDARD SERIAL NUMBER INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX COPERNICUS INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ БИБЛИОТЕКА LIBRARY.RU



ISSN: 3060-463X

РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 2026-yil, iyun.

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afarovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalendar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor

Kalonova Moxigul Baxritdinovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Norboyev Odil Abrayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Pardaev Umidjon Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Xolmirzayev Ulug'bek Abdulazizovich, Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc)

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
05.01.07 – Matematik modellashtirish
05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
05.08.06 – "G'ildirakli va gusenisali mashinalar va ularni ishlatish" (texnika fanlari)
05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 – Makroiqtisodiyot
08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 – Ekonometrika va statistika
08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 – Marketing
08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 – Menejment
08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK
Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

XO'JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLARNING LIKVIDLILIGINI TA'MINLASH MASALALARI.....	10
Bauyetdinov M.J.	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA OLIY TA'LIM TIZIMINI MODERNIZATSIYA QILISH STRATEGIYASI.....	18
Usmanova Zumrad Islamovna, Xasanova Yulduz Kayumovna	
TOKLI O'TKAZGICHLARDA MAGNIT MAYDON INDUKSIYASINING NAZARIY TAHLILI	23
O'ngboyev Anvar, Umarov Uyg'un, Dusiyorov Jaxongir, Jonimqulov Mirtemur	
QISHLOQ XO'JALIGIDA SUV RESURSLARINI BOSHQARISHNING INNOVATSION MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	30
Akbarova Shaxnoza Yakub qizi	
IQLIM O'ZGARISHI SHAROITIDA ASALARICHILIK TARMOG'I SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA DAVLAT QO'LLAB-QUVVATLASH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	33
Farmanov Jonibek Ziyadullayevich	
BILVOSITA SOLIQLARNI MA'MURIY BOSHQARISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI	38
Mansurova Arofatxon Shavkat qizi	
BANKLARNING MOLIYAVIY BARQARORLIGINI XALQARO USULLAR VA MEZONLAR ASOSIDA BAHOLASHNI TAKOMILLASHTIRISH.....	43
G'aybulloyev Suxrob Odil o'g'li	
IDEMPOTENT O'LCHOVLAR SIMPLEKSIDA ANIQLANGAN CHIZIQLI OPERATORLAR DINAMIKASINING EKOLOGIK MODELLASHTIRISHDAGI TATBIQI	50
Karimov Muzaffar Musaxonovich, Karimova Shalola Musayevna	
BANKLARARO LIKVIDLILIKNI BOSHQARISHDA SUN'IY INTELLEKT VA BIG DATA TEXNOLOGIYALARINI QO'LLASH ISTIQBOLLARI	56
Baxromov Nodirjon Muxammadamin o'g'li	
BANKLARDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA XIZMAT KO'RSATISH SIFATINI OSHIRISH	60
Asemova Rano Japbarbergenovna	
ПРОГНОЗИРОВАНИЕ ПОКАЗАТЕЛЕЙ ПРОДОВОЛЬСТВЕННОЙ БЕЗОПАСНОСТИ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН НА ОСНОВЕ СЦЕНАРНОГО АНАЛИЗА РАЗВИТИЯ АПК.....	66
Ли Марина Рудольфовна	
POLIMER VA UGLEROD NANOTOLALI MODIFIKATORLAR ASOSIDA BITUM KOMPOZITSIYALARINING REOLOGIK, MIKROTUZILMAVIY VA ADGEZION XOSSALARINI TAKOMILLASHTIRISHNING QIYOSIY TAHLILI	70
Hasanov Bahrom Bo'ronovich	
XORIJIY TADBIRKORLIK RIVOJLANISHIGA XALQARO IQTISODIY INTEGRATSIYANING TA'SIRI.....	76
Mamatraimov Islom Mamanazarovich	
SULFIDLI POLIMETALL RUDALARNI SELEKTIV FLOTATSIYALASHDA YANGI AVLOD REAGENTLARINI QO'LLASHNING TEXNOLOGIK YECHIMLARI TAHLILI.....	79
Xushvaqтова Zamira Hikmatulloyevna, Saidaxmedov Aktam Abdisamiyevich	
LOGICLABUZ: A BROWSER-NATIVE CO-SIMULATION PLATFORM FOR THE VIRTUALIZATION OF MULTI-MCU ROBOTIC SYSTEMS	84
Ergashev Adizbek Kamol ugli	
DUBAY IQTISODIYOTINING DIVERSIFIKATSIYALASHUV BOSQICHLARI VA UNDAN O'ZBEKISTONDA FOYDALANISH IMKONIYATLARI.....	94
Dilmira Abdumalikovna Shamusarova	
MINTAQADA TIBBIY TURIZMNI RIVOJLANTIRISHNING XALQARO MODELLARI.....	99
Yusupova Mehrigon O'ktamovna	
EKONOMETRIK MODELLARNI TANLASH VA ULARNING SIFATINI BAHOLASHDA INTEGRAL MEZONNI QO'LLASH	104
Turayev Baxtiyor Ergashevich	



PHP VA SUN'YI INTELLEKT SINERGIYASI: LARAVEL ASOSIDA INTELLEKTUAL VEB-TIZIMLARNI LOYIHALASH ARXITEKTURASI.....	110
Jo'rayev To'xtasin, Abdusattarov Odiljon, Boymatov Mexrojiddin, Temirova Orifa, Yuldashboyev Shermuxammad	
CORPORATE GOVERNANCE QUALITY, FOREIGN DIRECT INVESTMENT, AND ECONOMIC GROWTH: A PANEL ECONOMETRIC ANALYSIS OF CENTRAL ASIAN COUNTRIES (2003–2024).....	119
Yusufjon Pulatov	
TIJORAT BANKLARI KREDIT PORTFELINI DIVERSIFIKATSIYA QILISH VA KREDIT RISKLARINI BOSHQARISHNI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI.....	129
Sheraliyev Olimjon O'ktam o'g'li	
МЕХАНИЗМ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ КРУПНЫХ ПРОМЫШЛЕННЫХ ПРЕДПРИЯТИЙ В НАЦИОНАЛЬНОЙ ЭКОНОМИКЕ.....	135
T.T. Жураев	
XORAZM VILOYATIDA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISH ASOSIDA HUDUDIY BANDLIKNI KENGAYTIRISH MEKANIZMLARI	140
Azadova Gulnoza Sardorbekovna	
YASHIL IQTISODIYOT, RESURS SAMARADORLIGI, TABIIY KAPITAL, AYLANMA IQTISODIYOT, EKOLOGIK SAMARADORLIK VA INKLYUZIV O'SISH TUSHUNCHALARINING ILMIY EVOLYUTSIYASI TAHLILI	146
Karimov Islombek Bekpo'lat o'g'li	
РОЛЬ АЛГОРИТМОВ В ПРОЦЕССЕ ПРИНЯТИЯ ИНВЕСТИЦИОННЫХ РЕШЕНИЙ НА СОВРЕМЕННЫХ РЫНКАХ КАПИТАЛА	153
Алиева Сусанна Сейрановна	
РОЛЬ АЛГОРИТМОВ В ПРОЦЕССЕ ПРИНЯТИЯ ИНВЕСТИЦИОННЫХ РЕШЕНИЙ НА СОВРЕМЕННЫХ РЫНКАХ КАПИТАЛА	153
Алиева Сусанна Сейрановна	
BUXORO VILOYATIDA ERKIN IQTISODIY ZONALAR FAOLIYATI VA ASOSIY KO'RSATKICHLARI TAHLILI.....	160
Ibragimov Aziz Turayevich	
ALOQA XIZMATLARINI KO'RSATUVCHI SUBYEKTLARDA SOLIQLAR HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH	168
Shirinov Uchqun, Bahodirova Madinabonu	
TA'LIM XIZMATLARI EKSPORTINI RIVOJLANTIRISHGA TA'SIR ETUVCHI OMILLARNING SWOT VA OMILLI TAHLILI.....	176
Alimova Shamsiya Abidovna	
ВЫЗОВЫ РАЗВИВАЮЩИХСЯ РЫНКОВ: ИНФРАСТРУКТУРНАЯ МОДЕРНИЗАЦИЯ, ЧЕЛОВЕЧЕСКИЙ КАПИТАЛ И ЦИФРОВАЯ ТРАНСФОРМАЦИЯ.....	182
Умарова Шахноза Акбаровна	
YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA QUYOSH ENERGIYASIGA ASOSLANGAN YOMG'IRLATIB SUG'ORISH TIZIMINING IQTISODIY-EKOLOGIK SAMARADORLIGINI BAHOLASH.....	190
Nurmetova Muyassar Jumanazarovna	
TIJORAT BANKLARI KREDITLARINING DAROMADLILIGINI OSHIRISH YO'LLARI.....	200
Xasan Axmedov	
ZAMONAVIY TELEKOMMUNIKATSIYA TARMOQLARIDA TRAFIK TURLARINING XUSUSIYATLARI VA ULARNING XIZMAT KO'RSATISH SIFATIGA TA'SIRI.....	204
Abdujapparova M.B., Mirxosilov M.M.	
TURIZMNI MINTAQAVIY RIVOJLANTIRISHDA KLASTERLASH MODELINING TAMOYILLARI VA TARKIBIY ELEMENTLARI	209
Abduxamidov Sarvar Adxamovich	
DIGITAL TECHNOLOGIES AND FOOD SECURITY IN DEVELOPED COUNTRIES	214
Rakhmatova Mukhlisa Dilshod qizi	



THE ROLE OF DIGITAL TECHNOLOGIES IN THE DEVELOPMENT OF THE TOURISM SECTOR OF UZBEKISTAN: AN ECONOMETRIC ANALYSIS	221
Toshmurod Kulmanov, Sarvar Urinov	
QISHLOQ XO'JALIGIDA INNOVATSION JARAYONLARNI MOLIYALASHTIRISHNING MATEMATIK MODELI	228
Ishniyazov Baxrom Normamatovich, A'zam Qutbiddin A'zamzoda	
ОБЯЗАТЕЛЬНОЕ МЕДИЦИНСКОЕ СТРАХОВАНИЕ В КЫРГЫЗСКОЙ РЕСПУБЛИКЕ: ПРОБЛЕМЫ И ПУТИ ИХ РЕШЕНИЯ	234
Омокеев Максымбек Конколойевич	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA MINTAQAVIY TURIZMNI RIVOJLANTIRISHNING ZAMONAVIY MEKANIZMLARI	239
Abduxamidov Sarvar Adxamovich	
МАХАЛЛИЙ БЮДЖЕТ ХАРАЖАТЛАРИ САМАРАЛИ ИЖРОСИНING MOLIYAVIY MUSTAQILLIKKA TA'SIRI	244
Usmonov Parviz Shavkatovich	

MAHALLIY BYUDJET XARAJATLARI SAMARALI IJROSINING MOLIYAVIY MUSTAQILLIKKA TA'SIRI

Usmonov Parviz Shavkatovich

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti, PhD.

Email: uparviz@list.ru

Annotatsiya: Mazkur maqolada mahalliy byudjet xarajatlarining samarali ijrosi va uning hududlarning moliyaviy mustaqilligiga ta'siri masalalari tadqiq etilgan. Mahalliy byudjetlarning xarajat yo'nalishlari, ularning hududiy ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishdagi o'rni hamda byudjet salohiyatini baholashning nazariy va amaliy jihatlarini tahlil qilingan. Shuningdek, mahalliy byudjetlar daromadlari va xarajatlari o'rtasidagi mutanosiblikni ta'minlash, transferlarga qaramlik darajasini kamaytirish hamda hududlarning moliyaviy mustaqilligini oshirishga qaratilgan taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan. Tadqiqot natijalarida mahalliy byudjetlar samaradorligini baholash uchun koeffitsiyentlar tizimini qo'llash zarurligi asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: mahalliy byudjet, byudjet xarajatlari, moliyaviy mustaqillik, byudjet salohiyati, transferlar, hududiy rivojlanish, byudjet samaradorligi, fiskal siyosat.

Аннотация: В данной статье исследуются вопросы эффективного исполнения расходов местных бюджетов и их влияния на финансовую самостоятельность регионов. Проанализированы направления расходов местных бюджетов, их роль в социально-экономическом развитии территорий, а также теоретические и практические аспекты оценки бюджетного потенциала. Кроме того, разработаны предложения и рекомендации, направленные на обеспечение баланса между доходами и расходами местных бюджетов, снижение зависимости от трансфертов и повышение финансовой самостоятельности регионов. В результатах исследования обоснована необходимость применения системы коэффициентов для оценки эффективности местных бюджетов.

Ключевые слова: местный бюджет, бюджетные расходы, финансовая самостоятельность, бюджетный потенциал, трансферты, региональное развитие, эффективность бюджета, фискальная политика.

Abstract: This article examines the effective execution of local budget expenditures and their impact on the financial independence of regions. It analyzes the expenditure directions of local budgets, their role in regional socio-economic development, as well as the theoretical and practical aspects of assessing budget capacity. In addition, proposals and recommendations are developed to ensure a balance between local budget revenues and expenditures, reduce dependency on transfers, and enhance the financial independence of regions. The study substantiates the need to apply a system of coefficients for evaluating the efficiency of local budgets.

Keywords: local budget, budget expenditures, financial independence, budget capacity, transfers, regional development, budget efficiency, fiscal policy.

KIRISH

Bugungi kunda O'zbekistonda hududlarni kompleks rivojlantirish, ularning iqtisodiy salohiyatini oshirish va mahalliy davlat hokimiyati organlarining moliyaviy mustaqilligini ta'minlash davlat moliya siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Ushbu jarayonda mahalliy byudjetlarning daromad bazasini mustahkamlash bilan bir qatorda, mavjud mablag'lardan samarali foydalanish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki mahalliy byudjet xarajatlarining oqilona va samarali ijrosi hududlarda ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish, aholi turmush darajasini oshirish hamda iqtisodiy faollikni rag'batlantirishning asosiy moliyaviy manbalaridan biri hisoblanadi.

So'nggi yillarda mamlakatimizda byudjet tizimini isloh qilish, mahalliy byudjetlar mustaqilligini kengaytirish, hududlarning o'z daromad manbalarini shakllantirish imkoniyatlarini oshirish va byudjet mablag'laridan foydalanish samaradorligini kuchaytirishga qaratilgan keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Biroq ayrim hududlarning yuqori byudjetlarga moliyaviy qaramligi saqlanib qolayotganligi, transferlar ulushining yuqoriligi hamda byudjet xarajatlari natijadorligini baholash mexanizmlarining yetarlicha takomillashmaganligi mazkur masalaning dolzarbligini yanada oshirmoqda.

Shu nuqtai nazardan, mahalliy byudjet xarajatlarining moliyaviy mustaqillikka ta'sirini ilmiy jihatdan o'rganish, xalqaro tajribalarni tahlil qilish hamda hududlar byudjet salohiyatini baholashning samarali usullarini ishlab chiqish muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega hisoblanadi. Mazkur maqolada mahalliy byudjet



xarajatlarning tarkibi, ularning hududlarning moliyaviy mustaqilligiga ta'siri va byudjet salohiyatini baholash mexanizmlari tadqiq etilgan.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Tadqiqotlarning ko'rsatishicha, davlat byudjeti xarajatlari va iqtisodiy o'sish hamda mahalliy byudjetlar xarajatlari va hududiy iqtisodiy taraqqiyot o'rtasidagi bog'liqlik klassik iqtisodiyot vakillari va zamonaviy iqtisodiyot sohasi vakillarining dolzarb munozarali mavzularidan biri bo'lib kelgan. Xususan:

Klassik iqtisodchi olim A. Smit (1776) dastlab o'z qarashlarida "davlatning iqtisodiyotga aralashuvi foydadan ko'ra ko'proq zarar keltiradi, shuning uchun xususiy sektor vakillari tomonidan mamlakatning ko'plab faoliyatini amalga oshirishi kerak" degan g'oyani ilgari suradi. Lekin keyinchalik Keyns (1936) "klassik iqtisodchilarning qarashlariga qarshi chiqib (shu jumladan o'zining ilgari g'oyalariga), iqtisodiy rivojlanishni rag'batlantirish uchun davlat xarajatlarini oshirish tarafdori bo'lgan" [1].

Tadqiqotchilar Sinx va Sahnii (Singh & Sahnii, 2014) fikricha, "Keynschilarning ta'kidlashicha, siyosatchilar davlat byudjeti xarajatlaridan qisqa muddatli siklik o'zgarishlarni tuzatish va iqtisodiy faollikning sog'lom darajasini saqlab qolish uchun foydalanishlari mumkin" [2].

Yana bir tadqiqotchi Barro (Barro, 2012) izlanishlariga ko'ra, "klassik qarashlarga ko'ra davlat tomonidan moliyaviy tashabbuslarning haddan tashqari hissasining yuqoriligi ikki sababga ko'ra iqtisodiy o'sish sur'atlariga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin:

birinchidan, hukumat tomonidan rivojlanish strategiyasining tez-tez o'zgarib turishi, davlat xarajatlarning samarali amalga oshirilishiga to'sqinlik qilishi natijasida iqtisodiy tizimning umumiy unumdorligi pasayishi kuzatiladi;

ikkinchidan, davlatning haddan tashqari sarf-xarajatlari pul impulslarini noto'g'ri shakllantirishi va monetar jihatdan og'ir oqibatlariga olib keladigan tanlovlarga sabab bo'lishi mumkin" [3].

Bizning fikrimizcha, ilmiy izlanishlar ko'rsatishicha, keynschilar davlat xarajatlari iqtisodiy faollikni rag'batlantiradi va umumiy xarajatlarning qisqa muddatli o'zgarishlarini yumshatish mexanizmi bo'lib xizmat qilishini ilgari surgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda mahalliy byudjet xarajatlari samarali ijrosining hududlar moliyaviy mustaqilligiga ta'sirini baholash maqsadida ilmiy bilishning bir qator umumiy va maxsus usullaridan foydalanildi. Xususan, mahalliy byudjetlar faoliyatining nazariy-huquqiy asoslarini o'rganishda ilmiy abstraksiyalash, induksiya va deduksiya usullaridan foydalanildi. Mahalliy byudjet xarajatlarning tarkibi, yo'nalishlari hamda ularning moliyaviy mustaqillikka ta'sirini tahlil qilishda tizimli yondashuv va mantiqiy tahlil usullari qo'llanildi.

Tadqiqot davomida O'zbekiston Respublikasi Byudjet kodeksi, byudjet munosabatlarini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlar, mahalliy va xorijiy olimlarning ilmiy ishlari hamda xalqaro tashkilotlar tomonidan e'lon qilingan ilmiy manbalar o'rganildi. Mahalliy byudjetlarning daromad va xarajat ko'rsatkichlarini baholashda iqtisodiy-statistik tahlil, qiyosiy tahlil va guruhlash usullaridan foydalanildi. Shuningdek, hududlarning byudjet salohiyati, transfertlarga qaramlik darajasi va moliyaviy mustaqillik ko'rsatkichlarini aniqlashda nisbiy ko'rsatkichlar hamda koeffitsiyentlar usuli qo'llanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Respublikamizda 2013 yilda qabul qilingan Byudjet kodeksiga asosan mahalliy byudjetlar xarajatlari ham aniq belgilab qo'yildi. Xususan, mahalliy byudjetlar, Qoraqalpog'iston Respublikasining respublika byudjeti, viloyatlarning viloyat byudjetlari va Toshkent shahrining shahar byudjetidan quyidagi xarajatlar amalga oshiriladi:

1. Ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash xarajatlari, shu jumladan: umumiy o'rta ta'lim, maktabdan tashqari ta'lim, pedagog kadrlar malakasini oshirish va qayta tayyorlash, boshqa yordamchi va uslubiy ta'lim muassasalarini saqlab turish xarajatlari;

bolalar uylari, davlat bolalar shaharchalarini saqlab turish, qonunchilikda Qoraqalpog'iston Respublikasining respublika byudjetidan, viloyatlarning viloyat byudjetlari va Toshkent shahrining shahar byudjetidan moliyalashtirilishi nazarda tutilgan ta'lim tizimidagi yordamchi xizmatlar va maqsadli tadbirlar xarajatlari;

republika shoshilinch tibbiy yordam markazi filialini, ko'p tarmoqli va ixtisoslashtirilgan tibbiyot markazlarini, ixtisoslashtirilgan kasalxonalar va dispanserlarni, tug'ruqxonalari va akusherlik majmualarini, tibbiy tashxis qo'yish markazlarini hamda hududiy sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi boshqarmalarini,



qon quyish xizmati va sud-tibbiyot ekspertizasi muassasalarini, Salomatlik va tibbiyot statistikasi instituti filialini, hududiy sog'liqni saqlashni boshqarish organlari tasarrufidagi boshqa davolash-profilaktika muassasalari va yordamchi tashkilotlarni, tibbiy-ijtimoiy ekspert komissiyalarini saqlab turish, shuningdek qonunchilikda Qoraqalpog'iston Respublikasining respublika byudjeti, viloyatlarning viloyat byudjetlari va Toshkent shahrining shahar byudjetidan moliyalashtirilishi nazarda tutilgan xizmatlarga haq to'lash xarajatlari;

qabul qilingan davlat dasturlariga muvofiq fuqarolarning sog'lig'ini saqlash tadbirlarini amalga oshirish xarajatlari;

ududiy madaniyat, jismoniy tarbiya va sportni boshqarish organlari tasarrufidagi madaniyat, jismoniy tarbiya va sport muassasalarini saqlab turish, shuningdek madaniyat va sportni rivojlantirishga doir maqsadli tadbirlarni amalga oshirish xarajatlari;

Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari tasarrufidagi arxivlarni saqlab turish xarajatlari;

Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar hamda Toshkent shahar hokimliklari tasarrufidagi keksalar va nogironligi bo'lgan shaxslar uchun internat uylari, pansionatlar va sanatoriylarni, nogironligi bo'lgan shaxslarni reabilitatsiya qilish markazlarini, boshqa muassasalarni saqlab turish xarajatlari, shuningdek aholini ijtimoiy muhofaza qilishga doir maqsadli tadbirlar xarajatlari;

shahar yo'lovchilar transporti tashuvchilarining yo'lovchilarni va bagajni cheklangan tariflar bo'yicha tashish, shuningdek alohida toifadagi fuqarolarni imtiyozli tashish xizmatlarini ko'rsatish bilan bog'liq zararlarning o'rnini qoplash xarajatlari;

kam ta'minlangan oilalarga to'lanadigan ijtimoiy nafaqalar, moddiy yordam hamda tabiiy ofatlardan jabrlangan oilalarga moddiy yordam.

2. Iqtisodiyot xarajatlari, shu jumladan: qishloq xo'jaligi tashkilotlarini saqlab turish, shu jumladan hayvonlar kasalliklariga qarshi kurashuvchi muassasalar xizmatlariga haq to'lash, yerlarni rekultivatsiya qilish ishlarini bajarish, shuningdek suv xo'jaligi tashkilotlarini saqlab turish;

uy-joy-kommunal xo'jaligi obyektlarida ta'mirlash ishlarini olib borish;

suv yo'llarining ayrim texnik uchastkalarini saqlab turish;

aholi punktlarini obodonlashtirish;

issiqlik energiyasini ishlab chiqaruvchilarning aholiga ko'rsatilgan issiqlik ta'minoti xizmatlari uchun pasaytirilgan tariflarni qo'llash natijasida yuzaga keladigan zararlarning o'rnini qoplash xarajatlari;

qonunchilikda nazarda tutilgan o'rmon xo'jaligini, o'simliklar karantinini saqlab turish xarajatlari;

3. Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari buyurtmachi bo'lgan markazlashtirilgan investitsiyalarni moliyalashtirish xarajatlari;

4. Mahalliy davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarini, shu jumladan: Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengeshini;

Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, Qoraqalpog'iston Respublikasi vazirliklari, davlat qo'mitalari va idoralari, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari, ularning boshqarmalari va bo'limlarini hamda Qoraqalpog'iston Respublikasining respublika byudjeti, viloyatlarning viloyat byudjetlari va Toshkent shahrining shahar byudjeti mablag'lari hisobidan moliyalashtirilishi nazarda tutilgan davlat boshqaruvi organlarining boshqa hududiy bo'linmalarini saqlab turish xarajatlari;

5. Qoraqalpog'iston Respublikasi respublika byudjetining, viloyatlar viloyat byudjetlarining va Toshkent shahri shahar byudjetining zaxira jamg'armalarini shakllantirish xarajatlari;

6. Jamoat ehtiyojlari uchun yer uchastkalarining olib qo'yilishi munosabati bilan, shuningdek davlat organlarining yoki ushbu organlar mansabdor shaxslarining qonunga xilof harakatlari (harakatsizligi) natijasida yuridik va jismoniy shaxslarga yetkazilgan zararining o'rnini qoplash xarajatlari;

7. Harbiy-ma'muriy sektorga yuklatilgan tadbirlarni va vazifalarni amalga oshirish va hal qilish xarajatlari;

8. Davlat grantlari, subsidiyalar va ijtimoiy buyurtma shaklida nodavlat notijorat tashkilotlari hamda fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari faoliyatini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash xarajatlari;

9. Qoraqalpog'iston Respublikasi respublika byudjetining, viloyatlar viloyat byudjetlarining va Toshkent shahri shahar byudjetining mablag'lari hisobidan moliyalashtiriladigan tashkilotlar va tadbirlarning xarajatlari.

Qoraqalpog'iston Respublikasining respublika byudjetidan, viloyatlarning viloyat byudjetlaridan va Toshkent shahrining shahar byudjetidan tumanlar va shaharlar byudjetlariga byudjet ssudalari, dotatsiyalar, subvensiyalar, o'tkazib beriladigan daromadlar va maqsadli ijtimoiy transfertlar ajratilishi mumkin.

Mahalliy byudjetlar, tumanlar va shaharlar byudjetlaridan quyidagi xarajatlar amalga oshiriladi:

1. ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash xarajatlari, shu jumladan: tumanlar (shaharlar) xalq ta'limi bo'limlari va maktabgacha ta'lim bo'limlarini, shuningdek ular tasarrufidagi maktabgacha ta'lim tashkilotlarini, umumiy o'rta ta'lim, maktabdan tashqari ta'lim muassasalarini saqlab turish hamda qonunchilikda tumanlar va shaharlar byudjetlaridan moliyalashtirilishi nazarda tutilgan ta'lim tizimidagi tadbirlar xarajatlari;

tuman tibbiyot birlashmalari, tuman markaziy poliklinikalari va koykasiz dispanserlar, tumanlar (shaharlar)



tibbiyot birlashmalari tasarrufidagi davolash-profilaktika muassasalari, oilaviy poliklinikalar, qishloq vrachlik punktlarini, tuman (shahar) sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi bo'limlarini saqlab turish xarajatlari;

qabul qilingan davlat dasturlariga muvofiq fuqarolarning sog'lig'ini saqlash tadbirlarini amalga oshirish xarajatlari;

tumanlar (shaharlar) madaniyat bo'limlari tasarrufidagi madaniyat muassasalarini, tumanlar (shaharlar) jismoniy tarbiya va sport bo'limlari tasarrufidagi jismoniy tarbiya va sport muassasalarini saqlab turish, shuningdek madaniyatni, jismoniy tarbiya va sportni, bolalar musiqa va san'at maktablarini rivojlantirishga doir maqsadli tadbirlar xarajatlari;

uyda ijtimoiy yordam ko'rsatish, Chernobil AES halokati oqibatlarini tugatishda ishtirok etgan shaxslarni va radiatsiya-yadro obyektlarida harbiy xizmatni o'tagan pensiya yoshidagi shaxslarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash xarajatlari;

kam ta'minlangan oilalarga ijtimoiy nafaqalar, moddiy yordam, shuningdek tabiiy ofatlardan jabrlangan oilalarga moddiy yordam to'lash xarajatlari;

2. Iqtisodiyot xarajatlari, shu jumladan: tumanlar va shaharlar veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish bo'limlari, laboratoriyalarni, irrigatsiya tizimlarining havza boshqarmalari huzuridagi tumanlar (Quvasoy shahri) irrigatsiya bo'limlarini saqlab turish;

shaharlar va boshqa aholi punktlaridagi ko'chalarni, shuningdek xo'jaliklararo qishloq avtomobil yo'llarini ta'mirlash;

uy-joy-kommunal xo'jaligi obyektlarida ta'mirlash ishlarini olib borish;

aholi punktlarini obodonlashtirish xarajatlari;

3. Tuman va shahar hokimliklarini hamda ularning bo'limlarini, shuningdek tumanlar va shaharlar byudjetlari mablag'lari hisobidan moliyalashtirilishi nazarda tutilgan davlat boshqaruvi organlarining boshqa hududiy bo'linmalarini saqlab turish xarajatlari;

4. Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarini saqlab turish xarajatlari;

5. Tumanlar va shaharlar byudjetlarining zaxira jamg'armalarini shakllantirish xarajatlari;

6. Jamoatchilik fikri asosida shakllantiriladigan tadbirlarni moliyalashtirish xarajatlari;

7. Boshqa xarajatlar, shu jumladan qonunchilikda tumanlar va shaharlar byudjetlaridan moliyalashtirilishi nazarda tutilgan ayrim tashkilotlar va tadbirlarning xarajatlari [4].

Mahalliy byudjetlarning shakllantirilishi va ijrosini ta'minlash amaliyoti o'ziga xos xususiyatlarga va muammolarga ega. Mahalliy byudjetlar tushunchasi negizida nafaqat bir qancha ilmiy, balki bir qancha amaliy muammolar yotadi, ushbu muammolarning vujudga kelishini hayotning o'zi taqozo etadi. Hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda mahalliy byudjetlarning rolini o'rganish mamlakatimizda iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, shuningdek byudjet tizimini isloh qilish va rivojlantirish bilan bog'liq holda, aholining ijtimoiy hayotida o'z ifodasini topmoqda.

Mamlakatda iqtisodiy islohotlarni davom ettirish byudjet jarayonini shakllantirishning aniq mexanizmlarini ishlab chiqishni talab etadi. Ma'lumki, mahalliy hokimiyat organlari aholi bilan bog'liq muammolarni hal etish, ijtimoiy ta'minot, uy-joy, sog'liqni saqlash, ta'lim, transport, kommunal xizmatlar, atrof-muhit ekologiyasi muammolarini yechishga mas'ul hisoblanadi. Mahalliy hokimiyat organlari ushbu xarajatlarni moliyalashtirish uchun yetarli darajada mahalliy byudjet daromadlarini shakllantirishi kerak [5].

Byudjet salohiyati byudjet tizimida qancha miqdorda moliyaviy resurslarni jamlay olish imkoniyatini ifodalaydi. Ta'kidlash joizki, hudud byudjet tizimini boshqarish samaradorligini baholash jarayonida byudjet salohiyati darajasi muhim ahamiyat kasb etadi.

Ilmiy izlanishlar ko'rsatishicha, mahalliy iqtisodchi olimlar tomonidan mahalliy byudjetlar xarajatlari o'ziga oid tadqiqotlar juda kamchilikni tashkil qiladi. Aynan biz o'rganayotgan mahalliy byudjetlar moliyaviy mustaqilligining mahalliy byudjetlar xarajatlari ta'siri yetarlicha tadqiq qilinmagan [6].

Xalqaro amaliyotga oid ilmiy tadqiqotlar ko'rsatishicha, «yalpi ichki mahsulotning real o'sishi ta'minlanganda davlat xarajatlari qisqaradi. Iqtisodiyot tanazzulga uchraganda davlat byudjetida taqchillik kuzatiladi, pirovardida iqtisodiyotni barqarorlashtirishni taqozo etadi. Shu bois, davlat byudjeti bo'yicha fiskal qoidalarining o'rnatilishi, ya'ni davlat xarajatlarini ko'paytirishga imkon bermaydigan qat'iy xarajatlar qoidasi mavjud bo'lganda, barcha byudjet daromad va xarajatlari o'ziga oid tuzatishlar daromadlar bo'yicha amalga oshiriladi, ya'ni real YaIM va soliq o'rtasidagi ijobiy bog'liqlik tufayli soliq tushumlari kamayadi. Shunga qaramay, davlat xarajatlari cheklanganligini hisobga olsak, soliq tushumlarining kamayishi kafolatlanganidan ancha yuqori bo'lishi mumkin» [10].

Hududlar iqtisodiy rivojlanishini baholashga bo'lgan metodologik yondashuvlarni yanada takomillashtirish zaruriyatining mavjudligini inobatga olgan holda, ushbu yo'nalish bo'yicha amaliy tavsiyalarni ishlab chiqish muhimligicha qolmoqda. Hudud byudjet salohiyati darajasiga, uning miqdoriga va tarkibiga moliyaviy majburiyatlarning amalga oshirilishi to'g'ridan-to'g'ri bog'liqdir. Hudud byudjet salohiyatini muhim moliyaviy kategoriya sifatida ko'rsatish va hududda jamlanishi mumkin bo'lgan vositalar miqdorini baholash respublika

hududlari rivojlanishini tahlil qilishda zarurat bo'lib qolmoqda.

Mahalliy byudjetlar rivojlanishining iqtisodiy va moliyaviy ko'rsatkichlarini obyektiv baholash maqsadida quyidagi ko'rsatkichlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir:

- Yalpi hududiy mahsulot (YaHM);
- Mahalliy byudjet umumiy daromadlari (D);
- Soliq tushumlari (ST);
- Mahalliy soliqlardan tushumlar (MST);
- Yuqori byudjetlardan ajratiladigan transfertlar hajmi (T);
- Hudud aholisi soni (A), shundan mehnatga layoqatli aholi soni (ML).

Mahalliy byudjet salohiyati darajasini baholashda bir hududning boshqa hudud ko'rsatkichlari bilan solishtirish imkoniyatining mavjudligi muhim ahamiyatga ega. Bunday yondashuv hududlarni differensiyalashga hamda har bir hududning o'ziga xos reytingini aniqlashga imkon yaratadi [7].

Byudjet transfertlari bilan mahalliy byudjetlar daromad va xarajatlari o'rtasidagi farqni qoplash nafaqat respublika byudjeti va viloyatlar mahalliy byudjetlari o'rtasida, shuningdek, viloyat byudjetidan tuman (shahar) byudjetlari o'rtasida ham keng qo'llaniladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Shuning uchun hududlarni baholash va ularni o'zaro taqqoslash imkoniyatini yaratish maqsadida ushbu hudud ko'rsatkichining respublika o'rtacha ko'rsatkichiga nisbatini ifodalovchi koeffitsientlar tizimini shakllantirish taklif etiladi [8]. Hudud byudjeti holatini to'liq baholash uchun yuqoridagi barcha ko'rsatkichlarni o'zida mujassam etgan umumlashgan integral bahoni kiritish lozim. Ko'rsatkichlarni umumiy ko'rinishga keltirish uchun ularni koeffitsient shaklida ifodalash kerak.

Hududlar byudjet salohiyati tizimining koeffitsientlari ko'rsatkichning umumlashgan holga keltirilishiga xizmat qiladi. Shunday qilib, hudud o'zni ma'lum ko'rsatkichning respublika o'rtacha ko'rsatkichiga nisbatan farqiga qarab belgilanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Smith, A. (1776). *An Inquiry into the Nature and Causes of the Wealth of Nations*. W. Strahan and T. Cadell, London, U.K.
2. Singh, B., & Sahni, B. S. (2014). Causality between government expenditure and national income. *The Review of Economics and Statistics*, 630–644.
3. Barro, N. G. (2012). The savers-spenders theory of fiscal policy. *American Economic Review*, 90(2), 120–125.
4. O'zbekiston Respublikasining Byudjet kodeksi, 72-modda. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2013-y., 52-l-son; 2014-y., 36-son, 452-modda.
5. Kasymova F. X., Usmonov P. Sh., Xodjimamedov A. A. Problems of formation of state budget revenues // *Socio-Economic Development of Russia and Regions in Statistics*. 2017. pp. 377–381.
6. Khodjimamedov A. Bank tizimini innovatsion rivojlantirish yo'nalishlari // *Economics and Innovative Technologies*. 2022. Vol. 10, No. 4, pp. 1–9.
7. Xodjimamedov A., Umedov A. Rivojlanayotgan mamlakatlar bank tizimida raqamli moliyaviy texnologiyalarni joriy etish afzalliklari // *Green Economy and Development*. Vol. 3, No. 5, pp. 665537.
8. Xodjimamedov A. Raqamli transformatsiya sharoitida innovatsion bank xizmatlaridan foydalanish yo'llari // *Economics and Innovative Technologies*. 2023. Vol. 11, No. 1, pp. 368–378.
9. Xodjimamedov A. A., Usmonov P. Sh. Activation of investment activity of corporate enterprises of transition economies in the context of globalization // *Institutional Development of Socio-Economic Systems: National Economy in the Global Environment*, pp. 106.
10. Chrysanthakopoulos, C., & Tagkalakis, A. (2023). Fiscal rules and tax policy cyclicity. *Economics Letters*, 111035.

muhandislik

& iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 6

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100